

**METHODS OF APPLYING INNOVATIVE AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE
EDUCATIONAL SYSTEM.
International online conference.**

Date: 21st April-2025

**MAKTAB O'QUVCHILARIGA AMALIY JARAYONLARIDA OSHXONA
JIXOZLARIDAN (CHINNI SHISHA SOPOL METALL KABI) TO'G'Rİ
FOYDALANISH TARTIBINI HAMDA SANITARIYA GIGIYENA
TALABLARIGA RIOYA QILISHNING AHAMIYATINI O'RGATISH**

Ismailova Momogul Hamraboy qizi

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lif kafedrasini o'qituvchisi

Bayjonova Zuhra Zakir qizi,

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lif 3-kurs talabasi

Eshchanova Saxiba Kadirberganovna

Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lif 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilariga amaliy mashg'ulot jarayonlarida oshxona jixozlari chinni, sopol, shisha, metal kabi jixozlardan to'g'ri foydalanish to'g'risida hamda, amaliy mashg'ulot jarayonlarida sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilishni o'rgatish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о правильном использовании кухонного оборудования, фарфора, керамики, стекла, металла, а также о обучении школьников соблюдению санитарно-гигиенических требований в процессах практического обучения.

Annotation: This article provides information on the correct use of kitchen equipment, porcelain, ceramics, glass, metal, as well as on teaching schoolchildren to observe sanitary and hygienic requirements in practical training processes.

Kalit so'zlar: chinni, sopol, shisha, metal, professional ta'lif, mikser, blender.

Ключевые слова: фарфор, катушка, стекло, металл, профессиональная подготовка, миксер, блендер.

Keywords: porcelain, sopol, glass, metal, professional training, mixer, blender.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2021-yil hisobga olindi, umumiyo'rta, o'rta maxsus, professional ta'lif muassasalarida o'quvchilar ovqatlanishini tashkil etishning sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari. Mazkur sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (keyingi o'rnlarda — sanitariya qoidalari) O'zbekiston Respublikasining "Ahholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi PQ-4887-son "Ahholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2021-yil 25-maydag'i PQ-5124-son "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq umumiyo'rta, o'rta maxsus, professional ta'lif muassasalarida (keyingi o'rnlarda — ta'lif muassasalari) o'quvchilarning xavfsiz va sog'lom ovqatlanishini tashkil etish, yuqumli va yuqumli bo'limgan kasalliklar profilaktikasi hamda ovqatdan zaharlanishlarning oldini olish choralarini belgilaydi.

Date: 21st April-2025



Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin xalq xo'jaligining barcha sohalarida, jumladan ta'lif sohasida ham ma'lum bir islohotlar o'tkazildi va o'tkazilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni kasbga yo'llash malakali mutaxassis etib tayyorlash ishlari maktablardanoq boshlanadi. Ana shu ishlarni bajarishda texnologiya ta'limi o'qituvchilariga ham ko'p narsa bog'liq bo'ladi. Hozirgi vaqtida texnologiya ta'limi darslarida maktab o'quvchilariga oziq-ovqat mahsulotlari va ulardan taomlar tayyorlash texnologiyasi to'g'risida ayrim asosiy tushunchalar berilmoqda. Ana shu maqsadda texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha o'quv rejasiga "Taom tayorlash texnologiyasi" fani kiritilgan. "Taom tayorlash texnologiyasi" fani oziq-ovqat mahsulotlarining turlari, navlari, sifatiga bo'lgan talablar, saqlash sharoitlarini, hozirgi zamonaviy texnologiyalar asosida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni va ulardan unumli, samarali foydalanish haqida ma'lumot bersa, ovqat tayyorlash jarayoni esa shu oziq-ovqat mahsulotlaridan turli xildagi milliy, qardosh xalqlar taomlari va pazandalik mahsulotlarini tayyorlash, did bilan bezatish, dasturxonga tortish tartiblarini o'rgatadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarga nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarni singdirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, texnologiya darslari orqali o'quvchilarga kundalik hayotda foydali bo'ladigan amaliy mashg'ulotlar, jumladan taom tayyorlash bo'yicha saboqlar beriladi. Ushbu mashg'ulotlarda oshxona jihozlaridan to'g'ri va xavfsiz foydalanishni o'rgatish muhim o'rinn tutadi.

Oshxona jihozlaridan foydalanish madaniyati

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar quyidagi asosiy oshxona jihozlari bilan ishslashni o'rganadilar:

1. Gaz yoki elektr plitasi
2. Pech (duxovka)
3. Mikser, blender kabi elektr jihozlar
4. Pichoq, qirg'ich, gazanda kabi qo'l asboblari

Bu jihozlardan foydalanish bo'yicha o'quvchilarga avvalo nazariy bilimlar beriladi. Masalan, har bir jihozning ishlash tartibi, xavfsizlik choralar, tozalash usullari o'rgatiladi. So'ngra esa amaliy mashg'ulotlar orqali bu ko'nikmalar mustahkamlanadi.

Amaliy mashg'ulotlarda eng asosiy e'tibor xavfsizlik qoidalariga qaratiladi. Pichoq va qirg'ich kabi kesuvchi asboblar bilan ishslashda ehtiyyotkorlik, elektr toki bilan ishlovchi jihozlarda xavfsizlik choralariga qat'iy amal qilish majburiy hisoblanadi. Shuningdek, gigiyena qoidalariga, ya'ni qo'l yuvish, toza asbob-uskunlardan foydalanish, silliq sirtlarda ishslash kabilarga e'tibor qaratiladi.

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarda nafaqat pazandalik, balki texnologiyaga bo'lgan hurmat, jamoada ishslash, ishni boshlab yakunlash kabi ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Ular oshxona jihozlarini to'g'ri ishlatishni o'rganib, uy sharoitida ham mustaqil harakat qilishga intiladilar. Bu esa o'z-o'ziga xizmat qilish madaniyatini rivojlantiradi.

Date: 21st April-2025

**Maktab o'quvchilariga amaliy mashg'ulot jarayonlarida taom tayyorlashda
sanitariya-gigiyena talablarini o'rgatishning ahamiyati**

Zamonaviy ta'lif tizimida o'quvchilarga nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarni singdirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, texnologiya va hayotiy ko'nikmalar darslarida o'quvchilarni taom tayyorlash jarayoniga jalg etish orqali ularni texnologiyasevarlik, mustaqillik va gigiyena qoidalariiga amal qilishga o'rgatish mumkin. Bunda sanitariya va gigiyena talablariga amal qilishni o'rgatish alohida o'rinn tutadi.

Sanitariya va gigiyena qoidalari har qanday taom tayyorlash jarayonida eng asosiy talablar hisoblanadi. Bu qoidalarga amal qilinmasa, tayyorlangan ovqat sifatsiz bo'lishi, hatto sog'liq uchun xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli, o'quvchilarga yoshligidan toza muhitda, sog'lom va xavfsiz sharoitda ovqat tayyorlashni o'rgatish juda zarur.

Mashg'ulot jarayonida gigiyena qoidalariaga amal qilish

Amaliy mashg'ulotlarda quyidagi gigiyena talablari doimiy tarzda eslatib o'tiladi va nazorat qilinadi:

Qo'llarni yuvish: ovqat tayyorlashdan oldin va keyin qo'llar sovun bilan yuvilishi kerak.

Toza kiyim va bosh kiyim: o'quvchilar maxsus fartuk va bosh kiyim kiyishi lozim.

Oshxona jihozlarini tozaligi: ishlatilayotgan pichoqlar, taxtachalar, idishlar va boshqa asboblar toza bo'lishi shart.

Mahsulotlarni to'g'ri saqlash: sabzavot, go'sht, non mahsulotlari alohida saqlanadi va ishlovdan o'tkaziladi.

Chiqqan chiqindilarni tezda yo'qotish: chiqindilarni oshxonada saqlab qo'ymaslik, maxsus paketga solib tashlash kerak.

Sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish orqali o'quvchilarda mas'uliyat, e'tibor, aniqlik, poklik va tartib-intizom kabi fazilatlar shakllanadi. Bu esa ularning kelajakdagi hayotida sog'lom turmush tarzini yuritishiga zamin yaratadi.

Idishlarni issiq suvgaga biroz iste'mol sodasi, gorchitsa va boshqa yuvish vositalari solib tegishli moslamalar yordamida yuviladi. Bu vositalar idishlarni yaxshi tozalaydi. Og'zi tor idishlarning ichi maxsus cho'tkada yuviladi. Ruxlangan choynaklarning ichini esa iste'mol sodasi bilan qaynatib, so'ng yuviladi. Idish tovoq metall, sopol, chinni, shisha, plastmassadan tayyorlanadi. Metall idishlarning alyuminiy, po'lat, jez, cho'yan, mis va boshqa metall va qotishmalardan ishlanadigan turlari bor. Alyuminiy idishlar shtampovka qilib, quyib tayyorlanadi. Shtampovka qilib tayyorlanadigan alyuminiy idishlar ishlatilishiga qarab har xil og'irlilikda bo'ladi: yengillari tagining qalinligi 1,5 mm, o'rtachalar — 2 mm, og'irlari — 2,5 mm bo'ladi. Qalin qilib quyilgan alyuminiy idishlar (tova, kastryul, qozon va shu kabilar), asosan yog' dog'lab, masalliq qovurishga, quyuq taomlar pishirishga mo'ljallangan. Alyuminiy idishlar kumushsimon xira sirlab, silliklab, issiqda jilolab, xromlab, bo'yamay yoki har xil ranglarga bo'yab sirlab ishlanadi. Alyuminiy idish tovoklar chidamli (658°С da eriydi) bo'ladi, haroratning tez o'zgarishi ta'sir ko'rsat-maydi, bunday idishlarda taomning rangi,

Date: 21st April-2025



hidi, ta'mi 11 buzilmaydi, shur, organik kislotalarga boy masalliqlarni qovurib yoki qaynatib pishiraverish mumkin. «Pekin ovqatni 2 sutkadan ortiq saqlab bo'lmaydi. Tuzlangan karam, shur bodring kabilarni alyuminiy idishlarda saklashi mumkin emas, tuz, kislota, ishkordan tez ayniydi. Yangi alyuminiy idishni hayvon yoki o'simlik moyi surtib kaynatib tashlab, keyin foydalanish kerak.

Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilarini amaliy mashg'ulotlar orqali oshxona jihozlaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish – bu ularning hayotda zarur bo'lgan ko'nikmalarini rivojlantirish, xavfsizlikka amal qilishni singdirish va kelajakda foydali fuqarolar bo'lishlariga xizmat qiluvchi muhim ta'limi jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vasiev M, Dodaev Q, Isabaev I, Sapaeva Z, Gulyamova Z "Oziq-ovqat tehnologiyasi asoslari". Darslik. Voris nashriyoti. Toshkent – 2012 y
2. Sharipov Sh. va boshqalar Texnologiya ta'limi. Umumuy o'rta ta'lim maktablarining 5 sinfi uchun darslik. Toshkent-2012 yil.
3. oshshaxo'jayeva Sh., Abduraxmonova texnologiya ta'limi 5-sinf. Toshkent-1998 yil.
4. Internetdan olingan ma'lumotlar